

## ERTAKLAR ORQALI BOLALARNING AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH

*Ilmiy rahbar: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent  
Tursunov F.G'.*

*Tovbayeva Maftuna Shonazarovna  
University of Science and Technologies Ijtimoiy fanlar fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada bolalarning xalq og'zaki ijodining ijobiy xususiyatlari, ertaklar orqali axloqiy fazilatlarni shakllantirish, o'zbek xalq ertaklarida aks etgan tarbiyaviy fazilatlar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, O'zbek xalq ertaklari, axloq shakllantiriladigan fazilatlar, tarbiyachi, "uchar gilam", "Ur to'qmoq", "Zumrat va Qimmat", "Kenja botir", "Egri va to'g'ri", "Uch og'a-ini botirlar".

**Ertak** - xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri bo'lib, ertaklarda o'zbek xalqining xohish-istaklari, orzulari aks etgan. Masalan "uchar gilam", "Ur to'qmoq", "Zumrat va Qimmat" ertaklari sirli va sehrli voqealar asosiga qurilgan. O'zbek xalq ertaklari bir necha asrlardan buyon yoritilib kelinmoqda. "Kenja botir", "Egri va to'g'ri", "Uch og'a-ini botirlar" kabi ertaklarda vatanparvar shaxslarning ibratli hayoti va sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Boshlang'ich sinflarida ertak, she'r, doston, masal, hikoyalar va topishmoq kabi janrdagi asarlarni ibrat sifatida ko'rsatish muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ertaklar "bir bor ekan, bir yo'q ekan"-deb boshlanib, "ular uzoq va baxtli hayot kechirishibdi" iboralar bilan yakunlanadi. Mana shu so'zlarning o'zida xalqimizning orzu-istaklari aks etgan. Ko'pgina ertaklarda boy va kambag'al obrzi aks etadi. Biz maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchi va boshlang'ich sinf o'quvchilariga faqat ertaklardagi boylar va boylik obrzini salbiy qiyofada ko'rsatmasligimiz kerak. Chunki ertaklarning oxirida "boy va farovon hayot kechirishibdi" degan jumla keltiriladi. Ertak bolalarda qahramonlarning xatti-harakatini muhokama qilib, baholash ko'nikmasini o'stirishi bilan birga yaxshilikning doimo g'alaba qozonishiga ishonch uyg'otadi.

Ertaklarda yaxshilik va ezgulik fazilatlari tarannum etiladi. Xususan "Zumrat va Qimmat" ertagida Zumratning kampirga qilgan yaxshiliklari mukofatlangan. Qimmatda esa aksincha. Ertakda qatnashuvchilarning rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz baxil, ochko'z kabi timsollarga bo'linishi o'quvchilarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga o'z ta'sirini o'tkazadi. Yod olingan kichik hajmdagi she'r va qo'shiqlar, bolaning nutqini ravon, aniq va sodda qilib ifoda etishni shakllantiradi. 6-7 yoshli bolalar bitta ertakni qayta-qayta eshitishni yoqtirishadi. Bu yoshdagi bolalarga ertak asosida rasm chizdirsa, bolalar bundan ko'proq axborot oladi. Kattalar bolalarga ertak o'qib berish mobaynida, ertak elementlari orqali, ularning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirgan holda, obrazli tafakkurining o'sishiga ma'lum darajada ta'sir etadilar. Sekin-asta bolaning o'zi ham bu jarayonda ishtirok eta boshlaydi. Ya'ni avval rasmlarni tomosha

qiladi, so'ngra ovozga taqlid qilish orqali ertak qahramonlarining nomini aytishga va tanish jummalarni davom ettirishga harakat qiladi. Bu jarayon orqali bolalar ertakni qayta so'zlab berishga harakat qiladilar.

Xalqimizda azaldan saqlanib kelayotgan bir gap bor: "Bola besh yoshgacha yozilmagan qog'oz" – deyiladi. Bu iboraning ma'nosi shundaki, bo'sh oq qog'ozga nima yozsang kelajakda shuni o'qiysan. Ertak bolaga hayotni anglashga, oqni qoradan farqlashga hamda, ezgulikni yovuzlikdan ustun qo'yishga undaydi. Barchamizga ma'lum ertaklardan biri bo'lgan "Susambil" ertagida hayvonlar hammasi birlashib, bo'rilar ustidan g'alaba qozanadi. Bu bilan ertakda, birlashib ahil inoq yashashni o'rgatadi.

Shu bilan birga, axloqni shakllantirish va rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan material maktabgacha yoshdagi bolani nuqtai nazardan tushunish kerak amalga oshirilayotgan zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jamiyat Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, aynan shu davrda, vatanparvarlik kabi axloqiy fazilatlar, intizom, rostlik, halollik, tejamkorlik, yaxshi niyat, mehnatsevarlik va boshqalar faqat axloqiy tarbiya unda motivatsiyaga asoslangan bo'lsa, u to'g'ri xarakterga ega bo'ladi. Bolalarning rivojlanishiga ko'pgina zamonaviy olimlar va o'qituvchilar katta ta'sir ko'rsatdilar. Bolaning shaxsiyatini rivojlantirish uchun ertakga tegishli qiziqarli voqiyalar shular jumlasidandir. Ta'lim ishlarida foydalanish mumkin va kerak bolalar bog'chasida aytiladigan ertak bir-birlari bilan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

I.F. Gerbart, J.A. Komenskiy, J.J. Russo, J. Locka, I.F., I.P. Pestalozzi, N.I. Pirogova, K.D.Ushinskiy, L.N. Tolstoy, A.S.Makarenko, V.A. Suxomlinskiy va boshqa shular kabi dunyoning pedagog olimlari maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash muammosiga doimiy qiziqib, ko'plab taniqli xorij va rus klassiklarining asarlarida javob topdilar. "Ertak xalqlar birligining ramzidir", dedi rus tadqiqotchisi ertaklar, tilshunos V.Ya. Propp. Bu bilan dunyodagi barcha millat vakillari axil inoq va birdamlikda yashashi hamda boshqa millat vakillariga nisbatan mehmondo'stlikni o'rgatadi<sup>1</sup>.

Afsona, rivoyat, lof, latifa, makal, topishmoq, ertak, doston, qo'shiq va boshqalar xalq ogzaki badiiy ijodining asosiy janrlari hisoblanadi<sup>2</sup>.

O'ziga xos tarbiya vositasi bo'lgan ertaklar bolajonlar uchun juda qiziqarli va qadrlidir. Ertaklar bolaning dunyoqarashini kengaytirib, uning hayotga ongli munosabatini shakllantiradi. Bola ertak orqali yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni bir-biridan farqlashni o'rganadi. Bu tushuncha uning psixologiyasida bir umrga muhrlanib, voyaga yetganidan keyin u ezgu ishlarga odatlanadi. Shu sababli tarbiyalovchi va petagoglar o'z tarbiyalanuvchilariga ertaklardagi har bir obrazlarni tushunarli hamda qiziqarli tarzda aks ettirib berishlari kerak. Chunki bu ertaklarning bolalar ongiga ta'siri orqali, ularning ezgulik, yaxshilik, insonparvarlik kabi tuyg'ularini rivojlanishiga hamda vatanparvarlik tuyg'usida

---

<sup>1</sup> K.A. Xamrayevna. To The Question on Neuropedagogic Possibilities of Formation of Creative Activity at Children of the Senior Preschool Age // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). - General Rublik licens. – Spanish, 2019. - Vol. 16. - N 2. - 2019, - R. 265-267.

<sup>2</sup> Хасанбоев Ж., Туракулов Х., Гайдаров М., Хасанбоева О. Педагогика фанидан изоҳри луғат. Т., «Fan va texnologiya», 2008, - Б. 374.

voyaga yetishiga samarali ta'sir ko'rsatish mumkin.

#### **Foydanilgan adabiyotlar.**

1. Choriyeva S. Ilm-fan va ta'limning rivojlanish istiqbollari, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlashning pedagogik-psixologik jihatlari, 105-107 bet 27-konferensiya to'plami, 2022-yil 24 iyun.

2. Choriyeva .S."Main Directions of Teacher Training and Improving Their Quality for the Preschool Education System". Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS) Volume: 01 Issue: 05 | 2022 ISSN: 2751-756X <http://innosci.org>. 50-54 bet

3. K.A. Xamrayevna. To The Question on Neuropedagogic Possibilities of Formation of Creative Activity at Children of the Senior Preschool Age // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT). - General Rublik licens. – Spanish, 2019. - Vol. 16. - N 2. - 2019, - R. 265-267.

4. Хасанбоев Ж., Туракулов Х., Гайдаров М., ХасанбоеваО. Педагогика фанидан изоҳри луғат. Т., «Fan va texnologiya», 2008, - Б. 374.